



## TALABLARNI INTELLEKTUAL BILIM OLİSHGA O'RGATISHNING İJTİMOİY JIHATDAN ZARURLIGI VA UNGA QO'YILGAN ZAMONAVİY TALABLAR

To`raqulov X.A

Pedagogik ta'lif xalqaro fanlar

Akademiyasi akademigi t.f.d, professor.

JDPU. Tel.: +998-91-566-42-82

e-mail: [Turaqulov77@mail.ru](mailto:Turaqulov77@mail.ru)

Buvrayev A.R

JDPU, magistr

Tel.: +998-97-025-41-42

e-mail: [buvrayev@gmail.com](mailto:buvrayev@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talablarni intellektual bilim olishga o'rgatishning ijtimoiy jihatdan zarurligi va unga qo'yilgan zamonaviy talablar, hozirgi ta'lif tizimida intellektual bilimga qo'yilgan talablar, talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashning o'ziga xos ijodiy yondashuvlari haqida.

**Kalit so'zlar:** talaba, darslik, intellektual, kasbiy faoliyat, integrativ yondashuv, kasbiy faoliyat, ilmiy - metodik, tarqatma material, intellektual salohiyat.


**Abstract:** This article is about the social necessity of teaching the requirements for intellectual knowledge and the modern requirements for it, the requirements for intellectual knowledge in the current education system, unique creative approaches to preparing students for intellectual activity.

**Аннотация:** В данной статье речь идет об общественной необходимости обучения требованиям к интеллектуальным знаниям и современным требованиям к ним, требованиям к интеллектуальным знаниям в действующей системе образования, уникальным творческим подходам к подготовке учащихся к интеллектуальной деятельности.

**Ключевые слова:** студент, учебник, интеллектуальная, профессиональная деятельность, интегративный подход, профессиональная деятельность, научно-методический, раздаточный материал, интеллектуальный потенциал.

**Key words:** student, textbook, intellectual, professional activity, integrative approach, professional activity, scientific-methodical, distribution material, intellectual potential.

Ma'lumki, jamiyatning va davlatning intellektuallik darajasi o'sha jamiyat va davlatdagi intellektual salohiyatli avlod tomonidan yaratilgan ilm – fan va texnika – texnologiyalar yutuqlari hamda ularga asoslanib tayyorlangan pedagogik taraqqiyotga e'tibor beradigan bo'lsak ilm – fan va texnika – texnologiyalar yutuqlari inson va insoniyat faoliyatining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Natijada "aqlli" texnikalar va aqillilashtirilgan (maxsus dastur asosida ishlaydigan)





texnologiyalar ishlab chiqarilmoqda va ulardan amaliyotda foydalanilmoqda. Bular esa uzlusiz ta'lif tizimi oldiga ishlab chiqarilayotgan innovatsion metod va texnologiyalarni puxta o'zlashtira oladigan, intellektual salohiyatli, fan va texnika yutuqlarini izchil egallab bora oladigan, zamonaviy raqobatbardosh yetuk kadrlarni tayyorlashdek, dolzarb va istiqbolli masalalarni qo'yamoqda.

Bunday dolzarb va istiqbolli masalalarni hal qilish hozirda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Bu fikrimizga dalil sifatida O'zbekiston Respublikasining va 2020 yil 23 – sentyabrdagi "Ta'lif to'g'risida"gi O'RQ – 637 – sonli qonuni hamda O'zbekistoni Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 – oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF – 5712 – sonli va 2019 yil 8 – oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlanitirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF – 5847 – sonli farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 – oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF – 6079 – sonli Farmonlari va shu kabi davlat hujjatlarini keltirishimiz mumkin.

"Talaba – darslik - o'qituvchi" ta'lif paradigmaida ham, kredit – modul tizimida ham bilim olishning intellektual tizimi faoliyati yetakchilik qilar ekan. Bu esa ushbu faoliyat tizimida yuqorida ta'kidlaganimizdek faqatgina talabaga emas, balki o'qituvchiga ham katta mas'uliyat yuklaydi, chunki bu tizimda ham xuddi "Talaba – darslik - o'qituvchi" talim paradigmaida ko'rsatilganidek o'qituvchidan yuksak intellektual salohiyatlilik, boshqaruvchilik, to'g'ri (optimal) qarorni qabul qila olishlik kabi mahoratlar talab etiladi. Bunga sabab bu mahoratlar orqali professor – o'qituvchi talabalarni mustaqil ishlashga, mustaqil bilim olishga, materiallarni o'rganishni loyihalashtirishga, mustaqil mutolaa va modulli ta'lif texnologiyalari kabilarga o'rgatishi va shu yo'nalishda metodik tavsiyalar hamda ko'rsatmalar berishi kerak bo'ladi.

Bu qayd etilganlarni e'tiborga olib endi ta'lif olishning intellektual tizimining asosiy maqsadi va o'qituvchining intellektual tizimining asosiy vazifasi to'g'risida fikr yuritishimiz mumkin bo'ladi.

### Maqsadi

Talabalarning egallamoqchi bo'lgan kasbiga ongli va ijodiy munosabatini tarkib toptirish negizida ularni mustaqil ishlay olishiga tayyorlash va professor – o'qituvchilar kasbiy intellektual salohiyatidan foydalangan holda ta'lif olish sifatini muntazam ravishda oshirib borishga tayyorlashdan iboratdir.

O'qitishning intellektual tizimining **asosiy vazifalari** quydagilardan iborat bo'ladi:

- talabalarning mustaqil ishlash sifatini ta'minlash;
- talabalarda o'quv – metodik resurslarni rasional foydalana olish ko'nikmalarini tarkib toptirish;



- talabalarni modulli va loyihali ta'lif texnologiyalari bilan qurollantirish;
- talabalarda o'rganilayotgan manba bo'yicha ma'lumotlar yig'ish, ularni qayta ishslash va kerakli manbalarga uzatish ko'nikmalarini shakllantirish;
- talabalarni o'rganilayotgan manba (fan, mavzu, tushuncha, qoida, qonun va shu kabilar) bo'yicha axborotli ta'minotni tayyorlashga o'rgatish va ularni bu jarayondagi axborot almashinuvining asosiy tamoyillari bilan qurollantirish;
- talabalarni kasbiy faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan mustaqil ishslash, mustaqil mutolaaga oid dasturiy va metodik ta'minotlarini tayyorlab qo'yish.

Bu qayd etilgan maqsad va vazifalar "Talaba - darslik - o'qituvchi" talim paradigmaida ham kredit - modul tizimida ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

### **Erishilgan natijalarga**

Mazkur maqolada erishilgan natijalarga asoslanib quyidagidek talablarni ifodalashni maqsadga muvofiq deb topdik:

• "Talaba - darslik - o'qituvchi" talim paradigmaси bilim olishning intellektual tizimi bo'yicha faoliyat yuritishni talab etadi va bu orqali talabalarda o'z kasbiy faoliyatini egallash bo'yicha yangi bilimlarni o'zlashtirish va ulardan amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini samarali shakllantirish jarayoni maqsadli amalga oshirilishi kerak;

• Talabalarga qanday o'qishni o'rgatish orqali ularning intellektual salohiyatini, kasbiy bilimdonligini, manbalardan ma'lumot olish va ularni axborotga aylantira olish madaniyatini shakllantirishlarning optimal variantlarini ishlab chiqishga erishish kerak. Bu esa talabalarning ijtimoiy bilimdonligining shakllanishida muhim didaktik asos bo'ladi;

• "Talaba - darslik - o'qituvchi" talim paradigmaida talabalarda o'rganilayotgan manba bo'yicha ongli - ijodiy munosabat shakllanadi va ular negizida talabalardagi izlanuvchanlik qobiliyatları muntazam ravishda shakllanib, takomillashib borishi kerak;

• "Talaba - darslik - o'qituvchi" ta'lif talim paradigmaida talaba o'z faoliyatini rejalshtira olishi kerak va uning negizida talabalarda o'z ijodiy - kasbiy faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishga didaktik asos yaratishi kerak.

"Talaba - darslik - o'qituvchi" talim paradigmaси bilim olishning intellektual tizimidan iborat bo'lib, u orqali tayyorlanadigan bo'lajak mutaxassislar ilmiy - ijodiy faoliyatga ham tayyor bo'ladi.

### **Xulosa**

1. "Talaba - darslik - o'qituvchi" ta'lif talim paradigmaida ham, kredit - modul tizimida ham ta'lif olishning intellektual tizimi faoliyati yetakchilik qiladi.

2. "Talaba - darslik - o'qituvchi" ta'lif talim paradigmaida talabalarga qanday o'qitishni o'rgatish orqali ularning intellektual salohiyatini, kasbiy bilimdonligini, manbalardan ma'lumot olish va ularni axborotga aylantira olish madaniyatini shakllantirishning optimal variantlarini ishlab chiqishga erishish mumkin bo'ladi. Bu esa talabalarning ijtimoiy bilimdonligining shakllanishida muhim didaktik asos bo'ladi.



3. Bilim olishning intellektual tizimi negizida “Talaba – darslik - o'qituvchi” ta'lif paradigmasi faqatgina bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashga taluqli bo'lmasdan barcha yo'nalishdagi o'qituvchilarni tayyorlashga oid metodologik yondashuvdan iborat.

4. Talabalarni intellektual bilim olishga tayyorlashning algoritmik ketma – ketligiga amal qilgan holda ularni innovation rivojlangan raqobatbardosh intellektual salohiyatlari yetuk kadr qilib tayyorlashga erishish mumkin va bu orqali zamonaviy o'qituvchiga qo'yilgan xalqaro va respublika miqyosidagi talablarni ham og'ishmay amalga oshirgan bo'ladi.

5. Ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchi o'rtasidagi uzviy va uzlusiz muloqotning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda ijodiy va ongli faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday ijodiy va ongli hamkorlik jarayoni o'ziga xos istiqbolli va samarali xususiyat kasb etadi va u quyidagilarda o'z ifodasini topadi: talabalarining dars davomida befarq bo'lmasligi; mustaqil fikrplash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishida; talabalarining o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiyligini ta'minlanishida; ta'lif beruvchi va talabalarining hamkorlikdagi faoliyatini muntazam ravishda tashkil etishlarida o'z aksini topadi va shu kabilar.

### Tavsiyalar

Talabalar intellektual bilim olishi uchun nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Bilim olishning intellektual tizimi negizida “Talaba – darslik - o'qituvchi” ta'lif paradigmasi faqatgina bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashga taalluqli bo'lmasdan u barcha yo'nalishdagi o'qituvchilarni tayyorlashga oid metodologik yondashuvdan iborat. shu sababli mazkur metodologiyadan boshqa yo'nalishdagi mutaxassislar tayyorlashda foydalanishni tavsiya etamiz. Faqatgina unda muammoning qo'yilishini tadqiqot maqsadi va vazifasini e'tiborga olgan holda mazkur yondashuvni asosiy g'oya sifatida qabul qilishga to'g'ri keladi.


### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. [Sharipov Sh.S. va boshq. Bilim olishning intellektual tizimlarini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. – t: “Fan”, 2011, 206bet].

2. [Jo'rayev R.H., Turg'unov S.T. Ta'lif menejmenti. – T., “Voris-nashriyoti” , 2006, 263 b.].

3. Nurillayev O. O'quvchilarning bilimi va ko'nikmalarini texnologik vositalar yordamida shakllantirishning tashkiliy asoslari // “Maktabvahayot”. IMJ. - T.: 2011. - № 7 - 8. - B. 36 - 38.

4. Sharipov Sh.S. va boshk. Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chikish nazariyasi va amaliyoti. Mas'ul muxarrir: B.Begalov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. - T.: “Fan”, 2011. - 208 b.





14-SON

O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA

ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

20.12.2022



5. Savenkov, A. I. Kasbiy muvaffaqiyatlarga olib keladigan aql-idrok, kelajakdagi mutaxassisning kasbiy qobiliyatini rivojlantirish omili sifatida / A. I. Savenkov, L. M. Narikbayeva // Iqtidorli bola. - 2007. - № 6. S. 22-36.

